

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

OAV №0237

ISSN 2181-4430



“

Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat
iqtisodiyotining kelajagi yo'q.

”

Shavkat Mirziyoyev

RITM

RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI

9-SON

www.infocom.uz

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali

“Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi davriy nashri bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sohasida yangiliklar, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va sun‘iy intellekt sohalarida ilmiy-amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonlarini yoritadi.

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

Jurnal har chorakda bir marta elektron shaklda nashr qilinadi va www.infocom.uz saytiga yuklanadi.

“Digital economy” scientific-electronic journal

Scientific and electronic journal “Digital economy” is a periodical publication of the “Digital Economy Research Center” government entity under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Scientific and electronic journal illuminates the processes of increasing the efficiency of applied research and increasing economic efficiency through the introduction of digital technologies.

The journal is included in the list of recommended national scientific publications for publication of the main scientific results of dissertations on economic sciences of the Supreme attestation commission.

The journal publishes quarterly in electronic form and uploads to the website www.infocom.uz.

RAQAMLI IQTISODIYOT

ILMIY-ELEKTRON JURNALI

MUASSIS

“Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” davlat muassasasi

TAHRIR KENGASHI RAISI

Kravchenko Vladimir Vladimirovich

BOSH MUHARRIR

Axmedov Bexruz Ibroxim o‘g‘li

MAS’UL KOTIB

Abdullayev Ulug‘bek Maxmudovich

KOMPUTER OPERATORI VA DIZAYNER

Yusupov Akim Konstantinovich

TAHRIRIYAT A’ZOLARI

Abdurahmonov Q.X.	- i.f.d., akademik	Ismoilova G.F.	- i.f.n., dotsent
Teshabayev T.Z.	- i.f.d., professor	Mirzayev D.A.	- PhD, dotsent
Raximov B.N.	- t.f.d., professor	Iminova N.A.	- i.f.n., dotsent
Kenjaboev A.T.	- i.f.d., professor	Utanov B.Q.	- PhD, professor
Begalov B.A.	- i.f.d., professor	Xolmuxammedov M.M.	- i.f.d., dotsent
Jo‘rayev A.S.	- i.f.d., professor	Ismailov X.M.	- PhD, dotsent
Davronbekov D.A.	- t.f.d., professor	Mamadiyarov Z.T.	- i.f.d., dotsent
Pisetskiy Y.V.	- t.f.d., professor	Po‘latov Sh.U.	- t.f.n., dotsent
Khallel Ahmad	- PhD, professor	Sultonova M.O.	- PhD, dotsent
Qobulov X.A.	- i.f.n., professor	Bazarov F.O.	- i.f.d., dotsent
Xolmamatov F.K.	- i.f.d., professor	Kasimov A.A.	- PhD, dotsent
Xakimov Z.T.	- i.f.d., dotsent		
Xujamatov X.E.	- t.f.d., dotsent		
Isroilov J.D.	- PhD, dotsent		
Muxitdinov X.A.	- i.f.n., dotsent		

RAQOBATBARDOSHLIK O'SISHINING MINTAQA IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI

Raxmatullayeva Firuza Mubinovna

i.f.n, dotsent, Iqtisodiyot kafedrası, BuxDU

fusalinaa@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bozor munosabatlaridagi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lgan mintaqa raqobatbardoshligi kategoriyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada iqtisodiyotning hududiy va tarmoq tuzilmasidagi tarkibiy o'zgarishlar, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish zaruriyati belgilangan.

Kalit so'zlar: *mintaqa, iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi, tarkibiy o'zgarishlar, raqobatbardoshlik, mintaqa raqobatbardoshligi, raqobat pozitsiyasi, raqobat ustunliklari.*

ВЛИЯНИЕ РОСТА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НА СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

Рахматуллаева Фируза Мубиновна

*К.э.н., доцент кафедры «Экономика», Бухарский государственный
университет*

fusalinaa@gmail.com

Аннотация: В статье анализируется категория региональной конкурентоспособности, которая является одной из основных экономических категорий в рыночных отношениях. Также в статье определена необходимость изучения структурных изменений в региональной и отраслевой структуре экономики, факторов, влияющих на конкурентоспособность региональной экономики.

Ключевые слова: *регион, отраслевая структура экономики, структурные сдвиги, конкурентоспособность, конкурентоспособность региона, конкурентная позиция, конкурентные преимущества.*

THE IMPACT OF GROWING COMPETITIVENESS ON STRUCTURAL CHANGES IN THE REGIONAL ECONOMY

Rakhmatullaeva Firuza Mubinovna

Abstract: The article analyzes the category of regional competitiveness, which is one of the main economic categories in market relations. The article also defines the need to study the structural changes in the regional and branch structure of the economy, the factors affecting the competitiveness of the regional economy.

Keywords: *region, sectoral structure of the economy, structural shifts, competitiveness, regional competitiveness, competitive position, competitive advantages.*

KIRISH

Raqobatbardoshlik bozor munosabatlaridagi asosiy iqtisodiy kategoriyalardan biri bo‘lib, u mahsulot, korxona, tarmoq, mintaqa, mamlakat darajasida shakllanadi va umuman boshqa analoglar bilan raqobatga bardosh berish qobiliyatini ifodalaydi. Iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro aloqadorligi kuchayishi sharoitida raqobatbardoshlik ierarxiyasida mintaqaning raqobatbardoshligi alohida o‘rin tutadi [1]. Bu mintaqalarning bozor munosabatlarining mustaqil subyektlari bo‘lib, bu yerda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish bo‘yicha belgilangan maqsad va vazifalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiriladigan, bunga erishishda ularning raqobatbardoshligi muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi [2]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining barcha subyektlari rivojlanayotgan bozor makonida ishtirok etadi, ularning manfaatlari bir-biri bilan yaqindan kesishib, raqobat muhitini shakllantiradi, unda barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning samarali tadbirkorlik va tijorat faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan eng ishonchli raqobat pozitsiyalarga ega bo‘lgan mintaqa muvaffaqiyatga erishadi. Mintaqaning raqobat pozitsiyasi deganda tegishli raqobat sohasida (tovar va xizmatlar bozori, kapital, investitsiyalar bozori) mintaqa uchun qulay holatni yaratadigan omillar va shartlar bilan belgilanadigan raqobat ustunliklari majmui tushuniladi [3]. Shu bois, bugungi kunda mintaqalarning ishonchli raqobat pozitsiyalari va ularning raqobatbardoshlik darajasini oshirish mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim shartlariga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish nafaqat uning iqtisodiyotini rivojlantirish vositasi, balki uning aholisi turmush darajasi va sifatini oshirishning asosiy omili sifatida ham ko‘rilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi zamonaviy bosqichida yuz berayotgan mintaqalar o‘rtasida investitsiyalar uchun kuchayib borayotgan raqobat va aholi

ehtiyojining o‘sib borayotgan darajasini ta’minlash mintaqaviy raqobatbardoshlikning mohiyati va iqtisodiy mazmunini ochib berish talablarini kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy jarayon sifatida mintaqaning raqobatbardoshligi – bu juda ko‘p turli xil shart-sharoitlar: ishlab chiqarishning omil shartlari (mintaqaning xom ashyo, malakali kadrlar, rivojlangan moddiy va bozar infratuzilmasi bilan ta’minlanganligi); xo‘jalik yuritishning umumiy shart-sharoitlari (moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanganligi, iqtisodiy xavfsizlik, asosiy fondlarning eskirish darajasi va boshqalar); mintaqaning asosiy tarmoqlari mahsulotlariga talab omillari; ijtimoiy; ijtimoiy-madaniy; tashkiliy-huquqiy; siyosiy; omil shartlari va boshqalar ta’sir ko‘rsatadigan murakkab va qarama-qarshi harakatlar majmui hisoblanadi [4].

XXI asrning yangi iqtisodiy tendentsiyalari munosabati bilan mintaqalarning raqobatbardoshligi mintaqaviy rivojlanishning mustaqil nazariy va amaliy muammosi sifatida qarala boshlandi. Biroq, iqtisodchi olimlar ta’kidlaganidek, hozirgi vaqtda mintaqalararo raqobat va raqobatbardoshlikning umume’tirof etilgan nazariyasi yo‘q, bu esa zamonaviy mintaqaviy tadqiqotlarda yo‘nalishlar va uslubiy konsepsiyalarning xilma-xilligiga sabab bo‘ladi. Mintaqalar raqobatbardoshligi muammosiga bo‘lgan ilmiy qiziqish va katta uslubiy ahamiyatiga qaramay, uning ko‘pgina masalalari bugungi kunda ham o‘z yechimini topmagan. Birinchidan, milliy iqtisodiyot fani uchun nisbatan yangi bo‘lgan “mintaqa raqobatbardoshligi” tushunchasining ta’rifi masalasi yetarlicha o‘rganilmagan va uning ilmiy talqini (tafakkur qilinishi) davom etayotgan murakkab transformatsiya jarayonlari sharoitida, ya’ni eski jarayonlar bekor bo‘layotganda va butunlay yangi iqtisodiy munosabatlar vujudga kelayotganda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, “mintaqa raqobatbardoshligi” tushunchasi ilmiy ma’noda o‘ziga xos rolga ega bo‘lib, uning mohiyatini ochib berish birinchi darajali ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda mahalliy va xorijiy mualliflarning mintaqaviy raqobatbardoshlik masalalariga bag‘ishlangan asarlari ma’lum. Ushbu tushunchaning turli talqinlarini 1-jadvalda tizimlashtiramiz.

1-jadval

Mintaqa raqobatbardoshligi tushunchasining ta’riflarini tizimlashtirish

t/r	Ta’rifning mazmuni	Mualliflar
1	Mintaqaning raqobatbardoshligi – bu boshqa mintaqalar bilan taqqoslaganda hududiy mahsulotlardan, birinchi navbatda, mehnat va kapitaldan foydalanish unumdorligi (mahsuldorligi) bo‘lib, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (YaHM) qiymatida va dinmikasida namoyon bo‘ladi.	M. Porter

2	Mintaqaning raqobatbardoshligi deganda xalqaro bozorlar talablariga javob beradigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, shu bilan birga aholi daromadning barqaror yuqori darajasini saqlab turish yoki umuman olganda, tashqi raqobatga ochiq bo'lgan holda saqlab turish qobiliyati tushuniladi.	D. Sepik
3	Mintaqaning raqobatbardoshligi – bu mintaqaning mavjud ishlab chiqarish omillaridan (iqtisodiy salohiyatdan) samarali foydalanish, mavjud raqobat ustunliklarini qo'llash va yangilarini yaratish, xalqaro iqtisodiy standartlarga amal qilgan holda turmush darajasini saqlab qolish (oshirish) sharoitida raqobatbardosh tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta'minlash qobiliyatidir.	V.V. Merkushev
4	Mintaqaning raqobatbardoshligi, eng avvalo, ushbu mintaqaning raqobat salohiyatining mavjudligi va amalga oshirilishini anglatadi. Shu bilan birga, raqobat salohiyati ko'p qirrali bo'lib, mintaqaning dunyoning boshqa mamlakatlari bilan o'zaro faoliyat yuritib raqobat munosabatlarida ishtirok etish imkoniyatining xilma-xil xususiyatlari sifatida shakllanadi. Raqobatbardoshlik mintaqaning iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning turli sohalari va tarmoqlaridagi raqobat ustunliklari, mintaqaning mavjud bo'lish shartlari (iqlimi, geografik joylashuvi), tabiiy boyliklarning mavjudligi, aholi rivojlanishining intellektual darajasi kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.	V.I. Vidyapin, M.V. Stepanova
5	Mintaqaning raqobatbardoshligi – bu mintaqaning aholining yuqori turmush farovonligini ta'minlash va mavjud iqtisodiy salohiyatni (ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, investitsiyaviy, innovatsion, resurs va xom ashyo va boshqa komponentlar) amalga oshirish qobiliyatigaga ko'ra Rossiyaning boshqa mintaqalari orasidagi roli va o'rni.	A. Vorotnikov
6	Integrasiya va jahon xo'jalik munosabatlari jarayonida ichki va tashqi rivojlanish omillarining ta'siriga ko'ra hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati. Biroq, mintaqaning raqobatbardoshligini baholash hali ham yangi va kam o'rganilgan ilmiy-amaliy muammo bo'lib qolmoqda.	Sh.Nazarov

* muallif ishlanmasi

Mintaqaviy tovar ishlab chiqaruvchilarning raqobat ustunliklarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda besh turdagi ustunliklar ajratib ko'rsatiladi: resurs, texnologik, innovatsion, global va madaniy. Bunda ishlab chiqaruvchining raqobat ustunligi deganda uni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish iste'mol samarasini yaratish va daromad olish imkonini beradigan aktiv tushuniladi. Ishlab chiqaruvchilarning resurs

raqobat ustunliklari nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, ularning arzonligi va ulardan foydalanish uchun qulay sharoitlar, transport va aloqa markazlari, infratuzilmalarga nisbatan qulay joylashuvi, shuningdek, mamlakat hukumati tomonidan yaratilgan soliq va byurokratik rejimlar, hamda past foiz stavkalari tufayli yuzaga keladigan mahsulotning narx xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan iste'mol samarasini oshiradigan ustunliklar kiradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari sifatida mahalliy va xorijiy iqtisodchilarning klassik va zamonaviy asarlarida aks ettirilgan, hamda asoslangan mintaqa raqobatbardoshligi konsepsiyalari va gipotezalari xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Globallashuv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizim rivojlanishidagi noaniqliklarning kuchayishi natijasida hududiy iqtisodiyotni tartibga solish samarali tashkil etish muammosining dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Oldindan aytib bo'lmaydigan, noaniqlik va xavfning yuqori darajasi sharoitida iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash masalasi davlat va hududiy darajada katta ahamiyatga ega. Hududlarning nomutanosiblikda rivojlanishini oldini olish mamlakatning hududiy rivojlantirish siyosatining asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda mamlakatning hududiy rivojlantirish siyosati hududlarni rivojlantirishni rag'batlantiruvchi optimal mexanizmlarni kompleks tarzda o'z ichiga qamrab oladi.

Bugungi kunda davlat barqaror iqtisodiy o'sish uchun motivatsiya shakllantirishi yetarli darajada emas deyishimiz mumkin. Sababi soliq yukining va inflyatsiya darajasini nisbatan kattaligi, kredit olish qiyinligicha qolmoqda va bu ishlab chiqarish o'sishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillar qatorida aholi o'rtasida mahalliy korxonalar mahsulotlariga talabning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, turmush darajasi yetarli darajada emasligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatning noaniqligini ham ko'rsatish mumkin.

Mintaqaviy iqtisodiy siyosat – bu tarmoqlar, sohalar, hududlar, shuningdek, tashkilotlar turlari, texnologik tuzilmalari va iqtisodiy tizimning boshqa xususiyatlarining miqdoriy nisbatlarida ko'zga ko'rinadigan o'zgarishlar bo'lib, bozorlarda raqobatbardoshlikning o'sishiga yoki pasayishiga, iqtisodiy samaradorlikka yordam beradi [5].


Shuni ta'kidlash kerakki, hududiy iqtisodiyot tuzilmasini o'zgartirish sanoat va texnologik tuzilmalarni o'zgartirish, respublika va hududiy bozorlarda yirik, o'rta, kichik korxonalar egallagan bozor ulushlarini farqlash bilan birga amalga oshiriladi.

Fan-texnika taraqqiyoti ta'sirida ko'plab davlatlar iqtisodiyoti tarkibida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda, bu esa tarkibiy o'zgarishlar nazariyasini yanada rivojlantirishni taqozo etdi.

F.Perru ta'kidlaganidek, "...iqtisodiyot tarkibi uning elementlari o'rtasidagi nisbatlar va munosabatlar yig'indisi sifatida tavsiflanadi" [6]. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rifni mintaqaviy darajada ham qo'llash mumkin. Hududiy iqtisodiyot tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar vaqt o'lchovida, tarkibiy o'zgarishlarda esa davlatning tarkibiy siyosati va iqtisodiyotning optimal tuzilishiga erishish uchun islohotlar jarayoni [7].

Zamonaviy talqinda iqtisodiyotning tarkibi (shu jumladan, hududiy darajada) deganda, odatda, "...iqtisodiyot, iqtisodiy obyekt yoki iqtisodiy kategoriyaning muayyan belgilarga ko'ra tarkibiy qismlarga bo'linishi, bu tarkibiy qismlar o'rtasidagi munosabatlarning o'rnatilishi; iqtisodiy obyektning tarkibi, tuzilishi" [8].

Hududiy iqtisodiy tizimning alohida elementlari o'rtasidagi xususiyatlar va munosabatlarga qarab, uning tuzilishini quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Hududiy iqtisodiy tizim tuzilmalarining turlari

*Muallif ishlanmasi

Reproduktiv tuzilma ijtimoiy mahsulotning xarajat va funksional mazmuni bo'yicha bo'linishi bo'lib, ishlab chiqarish tizimining tegishli ravishda ikkiga bo'linishini ko'rsatadi. Umuman olganda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi - bu har bir bo'linmaning samaradorligida namoyon bo'ladigan, ichki ishlab chiqarish jarayoni va ushbu birliklarning o'zaro ta'siridan natija ko'rsatadigan haqiqiy takror ishlab chiqarish jarayonining samaradorligi.

Tarmoq tuzilmasi hududiy iqtisodiyot doirasida sanoat, tarmoqlar yoki iqtisodiy faoliyat turlarini taqsimlanishini nazarda tutadi. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi - bu xo'jalik faoliyatining xilma-xilligi va mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ma'lum institutsional qismlarning bo'linishi va ajratilishidir. Iqtisodiyot tuzilmasining asosiy tarkibiy qismi bu takror ishlab chiqarish jarayonida o'xshash funksiyalarni bajaradigan va daromadlar va xarajatlarning o'xshash tuzilishiga ega bo'lgan bir xil turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar majmuasidir [9]. Zamonaviy adabiyotlarda iqtisodiyotning quyidagi to'rtta sektori ajratib ko'rsatiladi:

- ishlab chiqarish sanoati, oʻrmon xoʻjaligi, baliqchilik, ovchilik va qishloq xoʻjaligi;
- elektr energiyasi, gaz, suv taʼminoti, qayta ishlash sanoati, qurilish ishlab chiqarish;
- xizmat koʻrsatish sohalari (raqamli texnologiyalar);
- boshqaruv, fan, dasturlash, axborot va ilmiy xizmatlar.

Mamlakatlarning raqobatbardoshligi har yili Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF) tomonidan bir necha yuzlab koʻrsatkichlar asosida aniqlanadigan tegishli indeks yordamida baholanadi [10]. Iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligi muammosining dolzarblashuvi jamiyat zamonaviy bozorlarda raqobatning qattiqligi va faqat xomashyo sektori salohiyatiga yoʻnaltirilgan strategiyalarning keskin cheklanganligiga ishonch hosil qilganidan keyin yuzaga keldi. Tayyor mahsulot va xizmatlarning jahon bozorlariga chiqish jiddiy tarkibiy oʻzgarishlarni va raqobatbardoshlikning chuqur innovatsion omillarini oʻzlashtirishni talab qildi. Iqtisodiy munosabatlarning globallashtirish va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yangi bosqichi raqobatbardoshlik muammosini uning iyerarxiyasining barcha darajalarida: mahsulotlar, korxonalar, tarmoqlar, hududlar va umuman mamlakat darajasida dolzarblashtirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqa iqtisodiyotlarining raqobatbardoshligini oshirish muammosi quyidagi yoʻnalishlarda hal etiladi:

- samarali fiskal va monetar siyosat olib borish orqali makroiqtisodiy barqarorlik va past inflyatsiyaga erishish va uni saqlash;
- iqtisodiyotda resurslardan foydalanish va taqsimlash samaradorligini oʻsishni taʼminlaydigan tarkibiy islohotlarni jadallashtirish va chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi eksportga yoʻnaltirilgan sanoatlashtirish strategiyasini ishlab chiqish;
- davlatning iqtisodiyotdagi rolini qayta koʻrib chiqish va kuchaytirish, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yuqori sifatini taʼminlash;
- tabiiy monopoliyalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning samarali faoliyat yuritishi;
- optimal makroiqtisodiy va tarkibiy nisbatlarni saqlash, yuzaga kelayotgan nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- iqtisodiy shaffoflikni, shu jumladan buxgalteriya hisobi va hisobotning xalqaro standartlarini jadal joriy etish orqali oshirish;
- iqtisodiyotni mamlakatimiz va xorijiy tadbirkorlarning toʻliq ishonchini uygʻotadigan, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish va shartnomalar bajarilishini kafolatlaydigan qonunchilik bilan tartibga solish tizimini taʼminlash.

Mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligi – bu eng avvalo, eksportni

faollashtirish bo‘lib, uni rivojlantirish xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi. Shu bilan birga, jahon bozori rivojlanishining hozirgi bosqichiga xos bo‘lgan tendentsiyalar va undagi tovar va mahsulotlarning yetakchi yetkazib beruvchilarining faoliyati mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan hisobga olinishi kerak, chunki ular uchun ham tashqi bozorda taklif etilayotgan tovarlarning raqobatbardoshligi masalalari dolzarbdir. Inqirozdan keyingi rivojlanishda mintaqaviy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning asosiy omili xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishdir. Bu, o‘z navbatida, mahsulotlar, birinchi navbatda, mashinalar, uskunalar, transport vositalari, kimyo mahsulotlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqalarning raqobatbardoshligini salmoqli darajada oshirishni taqozo etadi. Globallashuv sharoitida mintaqaning raqobatbardoshligi global muhit muammolariga javob berishga tayyorlik; iqtisodiyot tuzilmasining o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, mahalliy raqobat ustunliklarini izlash va himoya qilish, mintaqaviy iqtisodiyotning global raqobatdagi mavqeini qo‘llab quvatlash yoki yaxshilash qobiliyati sifatida chiqadi.

Mintaqaviy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridan ba’zilar quyidagilardan iborat:

- mintaqalarda mahalliy resurslardan oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosida tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xususiy sektorni rivojlantirish;

- xususiy sektorni rivojlantirishni rag‘batlantirish jarayonida qishloq rayonlariga ustuvorlik berilishi kerak. Ancha qoloq hududlarda, xususan, olis tog‘ va tog‘oldi, cho‘l-yaylov va ekologik jihatdan murakkab hududlarda kichik biznesni rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur;

- mintaqaviy marketingni rivojlantirish (hududlarning brend imidjini shakllantirish bilan), uning asosiy vazifasi mintaqaning mahalliy ustunliklarini aniqlash, ularni mustahkamlash va bu mintaqaga aholi farovonligini oshirishga qodir bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni jalb qilish uchun yangilarini yaratish.

Shunday qilib, hudud iqtisodiyotidagi tartibsiz tarkibiy o‘zgarishlarni to‘liq bartaraf etish hamda strategiya va dasturlar ishlab chiqish doirasida (“O‘zbekiston 2030” strategiyasi) jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining joriy tendensiyalarini, jumladan, globallashuv, raqamlashtirish, insonparvarlik va boshqalarni to‘liq hisobga olgan holda bozor va ma’muriy o‘zgarishlar uchun shart-sharoitlar yaratish hududiy davlat hokimiyati organlarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Чайникова Л. Н. Методологические и практические аспекты оценки конкурентоспособности региона: монография. Тамбов: Изд-во Тамбовского государственного технического университета, 2008. - 148 с.

2. The Global Competitiveness Report 2001-2002, Executive Summary: Competitiveness and Stages of Economic Development, Michael E. Porter, Jeffrey D. Sachs, John W. McArthur. 2. Blanke J., Paua F., Sala-I-Martin X. (2003), The Growth Competitiveness Index, CHAPTER 1.1. Analyzing Key Underpinnings of Sustained Economic Growth.

3. Видяпина В.И., М.В. Степанова. Региональная экономика. – М.: ИНФРА-М, 2007. 344 с.

4. Региональная экономика. / Под ред. Т.Г. Морозовой. М.: ЮНИТК. 2008.

5. Кушнарев, А.А. Структурные преобразования экономики как особый объект управления. [Электрон манба]. <https://cyberleninka.ru/article/n/strukturnye-preobrazovaniya-ekonomiki-kak-osobyi-obekt-upravleniya>

6. Перру, Ф. Экономика XX века / Ф. Перру. М.: Экономика, 2000. - 326 с.

7. Рощина, И.В. Трансформация экономики в условиях постиндустриального общества / И.В. Рощина. - Томск: Том. гос. ун-т, 2004. — 170 с.

8. Райзберг, Б.А. Современный экономический словарь /Б.А. Райзберг, Л.Ш. Лозовский, Е.Б. Стародубцева. - 6-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2011. http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_67315/c314f8c1fa13e1afa11c8716c7bce6dbf02d09aa/

9. Дохолян, С.В. Особенности структурных преобразований в трансформационной экономике / С.В. Дохолян, В.З. Петросянц, А.М. Садыкова. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-strukturnyh-preobrazovaniy-v-transformatsionnoy-ekonomike>

10. The Global Competitiveness Report 2001-2002, Executive Summary: Competitiveness and Stages of Economic Development, Michael E. Porter, Jeffrey D. Sachs, John W. McArthur.

MUNDARIJA

1	РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Саиткамоллов Мухаммадходжа Сабирходжа угли</i>	5
2	ВЕНЧУР ИНВЕСТИЦИЯЛАРИНИНГ ГЛОБАЛ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАЛАРИ <i>Атамурадов Шерзод Акрамович</i>	11
3	TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN UY-JOY QURILISHINI IPOTEKA KREDITI ORQALI MOLIYALASHTIRISH TARTIBI <i>Ziyayev Azamat Mirza o'g'li</i>	25
4	TO'QIMACHILIK SANOATI KLASSTERLARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Boltabayeva Nadirahon Alijanovna</i>	34
5	ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗДРАВООХРАНЕНИИ С ПОМОЩЬЮ МЕТОДА HEALTH TECHNOLOGY ASSESSMENT <i>Султанов Руслан Рустамович</i>	41
6	RAQOBATBARDOSH USTUNLIKLAR YARATISH: KORXONA SAMARADORLIGINING ASOSIY OMILI SIFATIDA <i>Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna</i>	50
7	MEHNAT BOZORINI STATISTIK HISOBGA OLISH VA AXBOROT BAZASINI SHAKLLANTIRISH <i>Mirzayeva Odina Imomnazar qizi</i>	58
8	TIJORAT BANKLARIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Tursunov Sherzod Abduqodirovich, Axrorova Aziza Jur'at qizi, Umarova Laylo Nuralievna</i>	66
9	КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ <i>Атамурадов Шерзод Акрамович, Фармонов Достонбек Бобожон ўғли</i>	78
10	KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING XORIJ TAJRIBASI <i>Shernayev Akbar Aqmirzayevich</i>	92
11	XUSUSIY SEKTORGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Imomaliyeva Mohizoda Rasuljon qizi</i>	105

12	CRITICALLY EVALUATION THE CONTRIBUTION OF TRAIT BASED THEORIES TO CONTEMPORARY APPROACHES SUCH AS TRANSFORMATIONAL, TRANSACTIONAL AND AUTHENTIC LEADERSHIP <i>Khusanov Salokhiddin</i>	113
13	QURILISH KORXONALARI BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI <i>Ablazov Nurillo Xusanboyevich</i>	127
14	SAVDO VA ELEKTRON-TIJORATDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI <i>Mahkamova Charos Baxtiyor qizi, Ismatillayev Amirxon Alisher o'g'li</i>	139
15	ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIKA INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI <i>Zaripov Alisher Muxammadovich</i>	145
16	ТИКУВ-ТРИКОТАЖ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БОШҚАРИШ ТАҲЛИЛИ <i>Вафоева Дилафруз Икромовна</i>	159
17	ASOSIY VOSITALARNI HISOBGA Olishda SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI <i>Kurbonova Shaxrinoz Avazxonovna</i>	173
18	МОДЕЛИ РАЗВИТИЯ УСТОЙЧИВОГО ТУРИЗМА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА <i>Ширинова Мадина Муродовна, Ахмедов Бехруз Иброхим угли</i>	185
19	BANKLARNI MOLIYAVIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV YO'LLARI <i>Vaxobov Shohjahon Valiyevich</i>	199
20	ТАЪЛИМ ПЛАТФОРМАЛАРИНИ ЯРАТУВЧИ WEB ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА ТАЪЛИМДА ЭРКИН ВА ОЧИҚ КОДЛИ ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ <i>Байназарова Лолахон Мирвахидовна</i>	206
21	INVESTITSION SALOHİYATNI SHAKLLANTIRISH VA UNI SAMARALI BOSHQARISH <i>Tursunov Sherzod Abduqodirovich, Umarova Laylo Nuralievna</i>	217
22	SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDAGI ROLI VA IMKONIYATLARI <i>Abdullayev Ulug'bek Maxmudovich, Axmedov Bexruz Ibroxim o'g'li</i>	228

23	HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASH <i>Shodmonov G‘olib Do‘stmurodovich</i>	235
24	RAQAMLI IQTISODIYOTNING YUKSALISHI VA MILLIY IQTISODIYOTLARGA TA’SIRI: AQSH VA XITOIY TAJIRIBALARINING TAHLILI <i>Gulov Muxtor Ochilovich</i>	244
25	XORIJIY MAMLAKATLAR VA O‘ZBEKISTON AHOLISI TURMUSH DARAJASINING QIYOSIY TAHLILI <i>Ilyosova Dilbar Ismoil qizi</i>	255
26	ИНТЕГРАЦИОН МАҲСУЛОТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШГА АСОСЛАНГАН БИЗНЕС ТУЗИЛМАЛАРИНИ БОШҚАРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ <i>Турсунова Зарнигор Рустамовна</i>	264
27	АГРОБИЗНЕС ВА РАҚАМЛАШТИРИШ: ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ УЧУН ЗАМОНАВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ САМАРАСИ <i>Ҳасанова Зилола Сатимбаевна</i>	273
28	MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI <i>Oxunboboyev Abdurahmon Ulug‘bek o‘g‘li, Najimov Akmal Umidjon o‘g‘li</i>	280
29	ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФИЛИАЛЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ РЕЙТИНГ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ <i>Ражабов Беҳзод Миршодович</i>	287
30	KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA REAL SEKTORDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI <i>Gulov Muxtor Ochilovich</i>	300
31	NEFT VA GAZ QAZIB CHIQARISH KORXONALARIDA INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATINI TAHLILI <i>Salomova Sarvinoz Salimovna</i>	307
32	RAQAMLI MARKETING VA UNING ZAMONAVIY DUNYODA AHAMIYATI <i>Sobirova Kamola, Ergasheva Nigora</i>	317
33	O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI <i>Daminova O‘g‘iloy Mirzaqul qizi</i>	326
34	MEHNAT BOZORIDA AHOLINI ISH BILAN TA’MINLASHNING SAMARALI MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Odilova Feruza Odilovna</i>	336

35	AHOLI DAROMADLARI TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR VA TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY JIHATLARI <i>Ergasheva Nafisa Baxriddinovna</i>	345
36	O'ZBEKISTONNING BARQAROR ENERGIYAGA O'TISHI <i>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</i>	354
37	IMPORTANCE OF FOREIGN LANGUAGES IN TOURISM DEVELOPMENT <i>Rahmanova Sayyora Rajabovna</i>	362
38	TADBIRKORLIK FAOLIYATI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI <i>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</i>	368
39	УСТУВОР ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРНИНГ РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ОИД ТАРКИБИЙ МЕЪЗОНЛАР ТАҲЛИЛИ <i>Дилдора Досчанова</i>	375
40	SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV INSTITUTIONAL TAMOYILLARINING MOLIYAVIY- IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI <i>Ismoilova Gulshodaxon Kamoliddinovna</i>	383
41	O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Salomova Sarvinoz Salimovna</i>	396
42	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIIYA RISKLARI VA ULARNI PASAYTIRISH YO'LLARI <i>G'ulomova Kamolaxon Anvarxon qizi</i>	403
43	DIVERSIFIKATSIYA: INVESTITSIIYA RISKLARINI KAMAYTIRISHNING SAMARALI USULI <i>G'ulomova Kamolaxon Anvarxon qizi</i>	410
44	TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI <i>Mirzayev Shohruh</i>	417
45	САНОАТ КОРХОНАЛАРИДА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ <i>Бахронова Шаходат Бахишulloевна, Бозоров Файрат Ўринович</i>	424
46	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING SHAKLLANIB BORISH JARAYONLARI <i>Muxitdinov Xayot Talatovich</i>	434

47	SUV RESURSLARINI BARQAROR BOSHQARISH VA FOYDALANISHNING ASOSIY MUAMMOLARI HAMDA YECHIMLARI <i>Ashurov Mahammadjon Sotvoldievich, Sotvoldiyeva Muslimaxon G'ayratjon qizi</i>	441
48	POCHTA ALOQASI KORXONASI FAOLIYATIGA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH MUAMMOLARI <i>Ravzatov Jonibek Baxromovich</i>	451
49	HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING O'RNİ <i>Abdullaev Habibullo Asadulla o'g'li</i>	458
50	ASSESSING THE MACROECONOMIC IMPACT OF TECHNOLOGICAL INNOVATIONS ON THE INDUSTRIAL GROWTH OF UZBEKISTAN: A TIME SERIES ANALYSIS <i>Abdullaev Khabibullo Asadulla ugli</i>	469
51	РАЗВИТИЕ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ <i>Давлетов Исламбек Халикович, Халилов Равшан Исмаатович</i>	479
52	DEVELOPMENT OF DIGITAL SERVICES OF GEORGIA <i>Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich</i>	492
53	DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGINI TASHKIL QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Ubaydullaeva Vasila Sadullayevna</i>	503
54	RAQOBATBARDOSHLIK O'SISHINING MINTAQA IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI <i>Raxmatullayeva Firuza Mubinovna</i>	511
55	МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ТЕОРИИ НАЛОГОВОГО МЕНЕДЖМЕНТА <i>Базаров Фуркат Одilovich, Исмаилов Хусанбой Махаммадкасим угли</i>	520
56	RAQAMLI IQTISODIYOTNING HOZIRGI TENDENSIYALARI VA GLOBALLASHUV SHAROITIDA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI <i>Bazarov Furqat Odilovich, Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li</i>	533
57	ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОПТИМИЗАЦИИ УСТОЙЧИВОСТИ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗЕРНОПРОИЗВОДСТВА В ПРОДОВОЛЬСТВЕННОМ СЕКТОРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН <i>Курбанова Дилдора Абдурахмановна</i>	545

58	FLYING AD-HOC NETWORKS: REVIEW, CHALLENGES, ARCHITECTURE, PROTOCOLS, COMMUNICATION AND MODELING	
	<i>Mahmudov Salimjon Olimjonovich</i>	556

**O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining №0237 raqamli
guvohnomasi bilan OAV sifatida davlat tomonidan tasdiqlangan**

**Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga
kiritilgan**

RAQAMLI IQTISODIYOT

Ilmiy-elektron jurnali

DIGITAL ECONOMY

Scientific-electronic journal

Telefon: +998 55 501 03 02

E-mail: info@infocom.uz

Website: <https://infocom.uz>

<https://derc.uz>

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mahtumquli ko‘chasi, 1-a uy.

ISSN 2181-4430

“RITM” DM

2024

Jurnal OAK Rayosatining Iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya
etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

RITM!

RAQAMLI
IQTISODIYOT
TADQIQOTLARI
MARKAZI



+998 55 5010302

t.me/DiEconomy

www.infocom.uz

info@infocom.uz

2024